# YASHIL IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

2026-YIL / IYUN/6-SON, V-QISM

INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
V-qism*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir oʻrinbosari:**
**Karimov Norboy Gʻaniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay’ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – Oʻzbekiston doʻstlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat Gʻafforovna,** pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdugʻaniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Koʻnak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoʻja oʻgʻli,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Faxridinov Zafarjon Faxridin oʻgʻli,** Oʻzb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshligʻi
**Utayev Uktam Choriyevich,** Anijon viloyati prokurorining oʻrinbosari
**Ochilov Farkhod,** Oʻzb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshligʻi
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil oʻgʻli,** texnika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), katta oʻqituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon oʻgʻli,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor oʻgʻli,** TDIU katta oʻqituvchisi
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna,** bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
**Ikramov Murod Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Nazarova Ra’no Rustamovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Editorial board:**
**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli,** Head of the DCEC under the Prosecutor Genera's Office of the Rep. of Uzb.
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Prosecutor of Anijan Region
**Ochilov Farkhod,** Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Victorovna,** Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Ikramov Murod Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Nazarova Ra'no Rustamovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**G‘afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o‘qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Geografiya fanlari doktori, professori
**Umirzoqov Ja’sur Artiqboy o‘g‘li,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Zebo Kuldasheva,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc ), dotsent

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Doctor of Geographical Sciences, Professor
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
**Zebo Kuldasheva,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA

KORPORATIV BOSHQARUVDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY TAHLILI ........ 12
I. R. Berdikulova

TEKSTIL SANOATIDA SUV ISTE'MOLI VA QAYTA ISHLASH ULUSHI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: 20 DAVLAT MISOLIDA KORRELYATSIYA VA K-MEANS KLASTER TAHLILI ........ 16
Zayniyev Diyorbek Zokir o'g'li
Turobova Hulkar Rustamovna

O'ZBEKISTONDA BIZNES BIRLASHUVLARINI HISOBGA OLISHNI MHXS (IFRS) 3 ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH ........ 24
Davletov Ikrom Raximberganovich

VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR AUDITINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH TARTIBI ........ 33
Jo'rayev Dilshod Xudoyqulovich

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА УПРАВЛЕНИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ ........ 38
Абдуллаева М.Б.

AGROSANOAT MAJMUASIDA INTEGRATSION TUZILMALARNING ISTIQBOLLI SHAKLLARINING NAZARIY ASOSLARI ........ 44
Murodov Sherzodbek Murod o'g'li

RESPUBLIKADA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING BOZOR MEXANIZMI ........ 51
Kalandarova Elnura Muzaffar qizi

TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MAHALLALARDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHGA KO'MAKLASHISH ........ 55
Niyozov Zuxur Davronovich
Yarlaqabov Faxriddin Baxodir o'g'li

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОТЧЕТА О ФИНАНСОВОМ ПОЛОЖЕНИИ КОМПАНИИ В СООТВЕТСТВИИ С ТРЕБОВАНИЯМИ МСФО ........ 58
Худойкулова Дилора Дилмуродовна

SANOAT KORXONALARINING INVESTITSIYALARI TARKIBI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINING IQTISODIY TAHLILI ........ 64
Karimova Saodatxon Ulug'bek qizi

XALQARO MOLIYAVIY HISOBOT STANDARTLARIGA MUVOFIQ JORIY AKTIVLARNI HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH ........ 71
Mavlyanova Dilobar Maxkamovna

DAVLAT TOMONIDAN TURIZM SOHASINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 77
Karimova Dilafruz Sadriddin qizi

МЕТОДЫ АНАЛИЗА ЦИФРОВИЗАЦИИ В РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ ........ 82
Ахмедова(Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи

AHOLI ZICH JOYLASHGAN HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY OMILLARI VA XORIJIY TAJRIBA TAHLILI ........ 89
Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna
Nematjonova Risolatxon Dilshodbek qizi

JANUBIY KOREYA TAJRIBASIDA CHIQINDILARNI BOSHQARISHDA EPR TIZIMI VA RAQAMLI YECHIMLARNING O'RNI ........ 94
Otarbayev Zamir Zairovich

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

SANOAT SALOHIYATI SAMARADORLIGINI INVESTISIYALAR ASOSIDA OSHIRISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI ........ 100
Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich
ЦИФРОВЫЕ НАВЫКИ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ЖЕНСКИХ КАДРОВ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ УЗБЕКИСТАНА........ 107
Дониёрова Зуҳрабону Алишер кизи
TURIZM SUG'URTASI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI........ 113
Xo'jamov Akbar Bahriddinovich
KELAJAKDAGI GLOBAL VA MINTAQAVIY IQLIM O'ZGARISHI HAMDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH ZARURIYATI ........ 118
Djumayev Askar Xaydarovich
SAMARQAND VILOYATI UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA RESURSLARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGI ........ 123
Erdonov Muhammadamin Erdon o'g'li
Qahhorova Nargiza Qahramonovna
Rafiqjonov Damir Raxim o'g'li
Jamilov Firdavs Otabek o'g'li
ПУТИ РАСШИРЕНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УПРАВЛЕНИИ БАНКОВСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ ........ 129
Норкулов Хабибулло
Абдурасулова Шахзода
Бахриддинов Дилшодбек
NATIV BRENDING VOSITASI SIFATIDA UGC VA EGC: GLOBAL TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON BOZORIGA MOSLASHUV ........ 135
Yuldasheva Mahliyo Baxtiyor qizi
SOLIQ TO'LOVCHILARGA XIZMAT KO'RSATISHDA RAQAMLASHTIRISH ORQALI SOLIQ MA'MURCHILIGINING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI ........ 138
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich
НАУЧНЫЕ ПОДХОДЫ И ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЦИФРОВОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ ПРИ УПРАВЛЕНИИ БИЗНЕС-ПРОЦЕССАМИ ........ 147
Джуманов А.А.
BANK SEKTORIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA XARAJAT SAMARADORLIGI: XALQARO TAJRIBA ASOSIDA EKONOMETRIK BAHOLASH ........ 157
Masharipova Durdona Ulug'bekovna
РАЗВИТИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ ........ 164
Джуманов А.А.
DAVLAT XARIDLARIDA SUN'IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN NARXLAR MODULINI JORIY ETISH: KORRUPSIYAGA QARSHI KOMPLAYENS, HISOBDORLIK VA RAQOBATNI KUCHAYTIRISH YO'NALISHLARI ........ 174
Raxmanov Furqat Temirovich
АНАЛИЗ НА ОСНОВЕ МОДЕЛИ АЛЬТМАНА ПРИ ОЦЕНКЕ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ........ 179
Ибрагимов Гайратжон Артикович
TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNINZ ZAMONAVIY MODELLARI VA KOMPLAYENSNAZORAT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH ........ 186
Fayziyev Sherzod Djunaydilloyevich
SUN'IY INTELLEKTNING MEHNAT UNUMDORLIGI VA MOBILLIGIGA TA'SIRI ........ 192
Shakarov Zafar Gafforovich

URGUT ERKIN IQTISODIY ZONASIDA SANOAT TARMOQLARINI KLASTERLASH SAMARADORLIGINING TAHLILI ..... 198
**Boboqulov Sanjar Baxronkulovich**
**Qurbonov Tolmasjon Namoz o'g'li**
**Uzoqov Rafiq O'lmas o'g'li**
INFRATUZILMA INVESTITSIYALARINING AHOLI FAROVONLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA HUDUDIY XUSUSIYATLARI ..... 204
**Jiyanov Laziz Najimovich**
«ЗЕЛЁНОЕ» ВОДОСНАБЖЕНИЕ В ЗАСУШЛИВЫХ РЕГИОНАХ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ ..... 210
**Курбанова Дилфуза Махсудовна**
TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIKPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI ..... 217
**Karimova Feruza Xamidullayevna**
PAXTACHILIKDA ZAMONAVIY AGROTEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA EKOLOGIK MUVOZANAT TA'MINLASHNING IQTISODIY MEXANIZMI ..... 221
**Ishniyazov Zoxid Normamatovich**
FUQAROLAR MUROJAATLARI MA'LUMOTLARI ASOSIDA HUDUDLARNING IJTIMOIYIQTISODIY RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI ..... 226
**Inomov Daniyar Valijonovich**
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA QIMMATLI QOG'OZLAR BILAN OPERATSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH: HOLAT TAHLILI VA TAVSIYALAR ..... 232
**Niyozov Zuhur Davronovich**
**Xolmurotov Sardor**
**Haydaraliyev Avaz**
YAQIN SHARQDA TURIZM EKSPORTI STRATEGIYALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI: BAA VA SAUDIYA ARABISTONI TAJRIBASI ASOSIDA QIYOSIY TAHLIL ..... 238
**Tolibova Aziza To'lqin qizi**
BANKLARDA IJARA MUOMALALARINI TARTIBGA SOLUVCHI ME'YORIY - HUQUQIY ASOSLAR VA XALQARO STANDARTLAR ..... 243
**Sativaldiyeva Gulchexra Xudayberdiyevna**
QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA STRATEGIK RISK-MENEJMENT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ..... 247
**Masharipova Sevara**
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI ..... 251
**Ergashev Jamshid Jamoliddinovich**
**Muhammadjonova Iroda Bahodir qizi**
BALIQCHILIK TARMOG'INI INTENSIV RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI ..... 256
**Iskandar Yunusov**
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA BARQAROR QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI: AGROEKOLOGIK VA IJTIMOIY-IQTISODIY YONDASHUVLAR INTEGRATSIYASI ..... 262
**Mirzanov Berdak Joldasbevich**
RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING IPOTEKA KREDITLASH JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISH MEXANIZMLARIGA TA'SIRI ..... 268
**A'zamxo'jayeva Nihol**
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI STATISTIK KO'RSATKICHLAR TIZIMI: METODOLOGIYA VA TAKOMILLASHTIRISH ..... 273
**Aysachev Abdulfotix Abdulfaizovich**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

O'ZBEKISTONDA XIZMATLAR EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI ..... 278
Ruziyeva Nigina Baxtiyorovna
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMIDA OLIB BORILGAN ISLOHOTLAR (MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI MISOLIDA) ..... 284
G.A. Norbo'tayeva
YASHIL MARKETING VA ESG INTEGRATSIYASI: STATISTIK TAHLIL VA BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI ..... 288
Charos G'ayratova
РАЗВИТИЕ ЦИФРОВЫХ СИСТЕМ И ОБЗОР ИНСТРУМЕНТОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ ..... 294
Джуманов, А.А.
RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA INVESTITSIYALARNI JALB QILISH — IQTISODIY TARAQQIYOTNING MUHIM OMILI ..... 303
Bayitova Rohatoy Bahrom qizi
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARUVCHILARNI SUG'URTA MEXANIZMLARI ORQALI MOLIYALASH MASALALARI ..... 307
Xakimov Zafar Ibragimovich
SOLIQ MA'MURCHILIGI ORQALI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING BARQAROR FAOLIYAT YURITISHINI TA'MINLASH MUAMMOLARI ..... 314
Ahrorqulov Jonibek Otabek o'g'li
FOOD PRICE VOLATILITY AND ITS EFFECTS ON LOW-INCOME HOUSEHOLDS ..... 320
Rakhmatova Mukhlisa Dilshod qizi
SUN'IY INTELLEKTNING O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI ..... 327
Hamidova Shahzoda Odiljanovna
MHXS VA XUSUSIY SEKTOR KREDITLARI: MAMLAKATLARARO EMPIRIK TAHLIL ..... 331
Davronbek Matyakubovich Matkarimov
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA OLIY TA'LIM XIZMATLARINI TASHKIL ETISHNING ZARURATI ..... 336
Xasanova Yulduz Kayumovna
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA ALOQA KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI ..... 340
Saidqosimova Umida Ibragimovna
PROSPECTS FOR DEVELOPING BROKERAGE AND UNDERWRITING ACTIVITIES OF COMMERCIAL BANKS IN UZBEKISTAN ..... 345
Niyozov Zukhur
Barnoyev Mirfayoz
Yadgarov Avaz
ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN HIGHER EDUCATION: A GLOBAL REVIEW OF AI-POWERED TEACHING AND LEARNING ..... 349
Begzod Nishanov
BULUTLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ELEKTRON TA'LIM RESURSLARINI BOSHQARISH MEXANIZMLARI ..... 356
Raxim Matniyazov
Umar Asrayev
ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ФОРМИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ ..... 367
Зугурова Зилола Дамировна

EKOLOGIK NIZOLARNI HAL ETISHDA SUD AMALIYOTINING O‘RNI: XALQARO TAJRIBA VA MILLIY YONDASHUV ..... 371
Gapparov Sarvar Xolmurodovich
МЕЖДУНАРОДНЫЕ ДЕНЕЖНЫЕ ПЕРЕВОДЫ КАК ФИНАНСОВЫЙ РЕСУРС УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И ФУНКЦИОНАЛЬНАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ..... 375
Гимранова О. Б.
O‘ZBEKISTON HUDUDLARIDA KAMBAG‘ALLIK DARAJASI TAHLILI (2010–2025-yillar) ..... 383
Hojiyev Tal’at Toshpo‘latovich
MINTAQADA TABIIY KAPITALNI JAMG‘ARISH SAMARADORLIGINI INTEGRAL INDEKS ASOSIDA BAHOLASH VA HUDUDLARNI TABAQALASHTIRISH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA) ..... 388
Raximov Faxriddin Shavkatovich
QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘INI UNDIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SOLIQ TO‘LOVCHILAR XULQ-ATVORINI MODELLASHTIRISH: INSTITUTSIONAL VA BIXEVIORISTIK YONDASHUVLARNING INTEGRATSIYASI ..... 393
Urazmatov Jonibek Musurmanovich
O‘ZBEKISTON BANK SEKTORIDA RAQAMLI XIZMATLAR BOZORI: JORIY HOLAT, TENDENSIYALAR VA XALQARO TAJRIBA ..... 398
Eshqobulova Charos O‘roq qizi
KORXONALAR EKSPORT FAOLIYATINI BOSHQARISHDA INNOVATSION MOLIYAVIY INSTRUMENTLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH ..... 403
To‘rayeva Yulduz Shamsiddin qizi
XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA IQTISODIY RESURSLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI BO‘YICHA XORIJIY TAJRIBALAR ..... 410
Islomov Shuhrat Marufjonovich
Eshquvvatova Nodira Abdullayevna
METHODOLOGICAL APPROACHES TO ENHANCING PROFESSIONAL COMMUNICATION SKILLS OF FUTURE TEACHERS IN A DIGITAL LEARNING ENVIRONMENT ..... 416
Dilnoza Jorayevna Kuvatova
MINTAQAVIY TURIZM RESURSLARINING TASNIFI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘NALISHLARI (SAMARQAND, BUXORO VA XORAZM VILOYATLARI MISOLIDA) ..... 420
Sharipov Shahriyor Shamsiddin o‘g‘li
O‘ZBEK VA INGLIZ TILSHUNOSLIKLARIDAGI SUBYEKT VA PREDIKAT PARADIGMASI, ULARNING UMUMIY VA XUSUSIY JIHATLARI ..... 423
Azamova Gulruh Akbar qizi
BUXORODA TURISTLAR XAVFSIZLIGI: TURISTLARNING XAVFSIZLIK HISSI VA MUAMMOLAR TAHLILI ..... 428
Kurbanova Mohinur Xabib qizi
Davronova Durdona Akobirovna
BUXORO VILOYATIDA EKOLOGIK VA MADANIY TURIZMNI INTEGRATSIYALASHGAN YO‘NALISHLARINI RIVOJLANTIRISH: BARQAROR RIVOJLANISH METODLARI VA ISTIQBOLLARI ..... 436
Xayrullayeva Nilufarbegim Nematullo qizi
РОЛЬ ГОСУДАРСТВА В ПРИВЛЕЧЕНИИ ИСТОЧНИКОВ ИНВЕСТИРОВАНИЯ В ИННОВАЦИОННЫЕ ПРОЕКТЫ ..... 445
Хашимова Н. А.
QASHQADARYO VILOYATI AHOLISINI IJTIMOIY HIMOYA QILISH TIZIMINING STATISTIK TAHLILI ..... 454
M.Sh. Raximova

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# EKOLOGIK NIZOLARNI HAL ETISHDA SUD AMALIYOTINING O'RNI: XALQARO TAJRIBA VA MILLIY YONDASHUV



**Gapparov Sarvar Xolmurodovich**
Green Universiteti, magistranti

**Ilmiy rahbar: Kuldasheva Aziza**
Green Universiteti, DSc., professor.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada global ekologik inqirozlar sharoitida O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 49-moddasida mustahkamlangan fuqarolarning ekologik huquqlarini sud orqali himoya qilish masalalari tahlil qilinadi. Maqolada ekologik nizolarni hal etishda milliy sud amaliyotining bugungi holati baholanib, Hindistonning Milliy Ekologik Sud hay'ati (NGT), Braziliya va Boliviyaning ilg'or institutsional modellarini O'zbekiston sud-huquq tizimiga implementatsiya qilish imkoniyatlari tadqiq etilgan. Hindiston tajribasi asosida milliy sudlarda texnik ekspertlar kengashlarini shakllantirish, Braziliya modeli tizimida jamoatchilik da'volari vakolatlarini kengaytirish hamda Boliviyaning tabiat obyektlari mustaqilligini tan olish yondashuvi prizmasida Orol bo'yi kabi ekologik ofat hududlariga mustaqil huquqiy subyektlik maqomini berish masalalari ilgari suriladi. Tadqiqot yakunida, O'zbekiston mahalliy va ma'muriy sudlari tizimida ixtisoslashgan ekologik sud hay'atlarini tashkil etish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Ekologik nizolar, sud amaliyoti, sud hay'atlari, texnik ekspertlar, xalqaro ekologik huquq, ekologik adolat, ekologik ekspertiza.

**Аннотация:** В данной статье анализируются вопросы судебной защиты экологических прав граждан, закреплённых в статье 49 новой редакции Конституции Республики Узбекистан, в условиях глобальных экологических кризисов. Оценивается современное состояние национальной судебной практики в разрешении экологических споров, а также исследуются возможности внедрения в судебно-правовую систему Узбекистана передовых институциональных моделей Индии (Национальный экологический трибунал — NGT), Бразилии и Боливии. На основе опыта Индии предлагается формирование технических экспертных советов при национальных судах, расширение полномочий общественных исков по бразильской модели, а также признание природных объектов самостоятельными правовыми субъектами по примеру Боливии для экологически пострадавших регионов, таких как Приаралье. В заключении предлагаются рекомендации по созданию специализированных экологических судебных коллегий в системе местных и административных судов Узбекистана.

**Ключевые слова:** экологические споры, судебная практика, судебные коллегии, технические эксперты, международное экологическое право, экологическая справедливость, экологическая экспертиза.

**Abstract:** This article analyzes the issues of judicial protection of citizens' environmental rights, enshrined in Article 49 of the new version of the Constitution of the Republic of Uzbekistan, under conditions of global environmental crises. The study evaluates the current state of national judicial practice in resolving environmental disputes and examines the possibilities of implementing advanced institutional models from India (National Green Tribunal — NGT), Brazil, and Bolivia into Uzbekistan's judicial and legal system. Based on the Indian experience, the formation of technical expert councils within national courts is proposed; from the Brazilian model, the expansion of public interest litigation powers; and from the Bolivian approach, the recognition of natural entities as independent legal subjects, particularly for ecologically affected regions such as the Aral Sea area. The study concludes with proposals and recommendations for establishing specialized environmental judicial panels within local and administrative courts of Uzbekistan.

Keywords: environmental disputes, judicial practice, judicial panels, technical experts, international environmental law, environmental justice, environmental expertise.

## KIRISH

Ekologik nizolar zamonaviy huquq tizimining eng murakkab va ijtimoiy ahamiyatga ega qismlaridan biridir. Bunday nizolar atrof-muhitga yetkazilgan zarar, tabiiy resurslardan noqonuniy foydalanish, ekologik me'yorlarning buzilishi, ekologik ekspertiza natijalari va kompensatsiya masalalari bilan bog'liq bo'ladi. Oddiy fuqarolik yoki ma'muriy ishlar bilan solishtirganda, ekologik nizolar ko'proq ilmiy-texnik dalillar, uzoq muddatli oqibatlar va jamiyat manfaatlarini qamrab oladi. Shu sababli ularni hal etishda sudlarning umumiy amaliyoti yetarli bo'lmay, ko'pincha ixtisoslashgan ekologik sudlar yoki sud hay'atlariga ehtiyoj tug'iladi.

So'nggi yillarda ekologik adolatni ta'minlash uchun alohida sud institutlari yaratish tendensiyasi kuchaydi. Bu jarayon ayniqsa Hindistonda Milliy Ekologik Sud hay'ati (NGT) tashkil etilishi bilan yaqqol namoyon bo'ldi. Bugungi kunda global miqyosda ekologik sudlar va sud hay'atlarining samaradorligi, ularning huquqiy mustaqilligi, ekspertlar bilan ishlash mexanizmi hamda xalqaro ekologik huquq normalarini qo'llash imkoniyatlari keng muhokama qilinmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ekologik nizolarni hal etishda sud amaliyotining o'rni faqat nizoni yechish bilan cheklanmay, balki ekologik boshqaruv tizimining ajralmas qismiga aylanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ekologik nizolar o'z tabiatiga ko'ra ko'p qatlamli bo'ladi. Ularda bir vaqtning o'zida shaxsiy manfaat, jamoat manfaatlari va davlatning ekologik siyosati to'qnash kelishi mumkin. Sud bunday vaziyatda huquqiy muvozanatni tiklovchi asosiy institut sifatida maydonga chiqadi. Sud amaliyoti quyidagi vazifalarni bajaradi: buzilgan ekologik huquqni tiklash, zarar miqdorini aniqlash, javobgarlikni belgilash, ehtiyot choralarini qo'llash va kelgusidagi buzilishlarning oldini olish.

Ekologik nizolarda sudning roli shunchaki nizoni hal qilish (arbitraj) bilan cheklanib qolmaydi, balki ancha kengroq preventiv (ogohlantiruvchi) va regulyativ (tartibga soluvchi) vazifalarni ham bajaradi. Sud qarorlari korxonalar va davlat organlari uchun majburiy yo'nalish bo'lib xizmat qiladi. Shu ma'noda sud amaliyoti ekologik siyosatni real huquqiy mexanizmga aylantiradi. Ekologik nizolar bo'yicha samarali sud tizimi mavjud bo'lsa, bu ekologik qoidabuzarliklar sonining kamayishiga va atrof-muhitga ehtiyotkor munosabat shakllanishiga olib keladi.

Ekologik nizolarning murakkabligi maxsus sud organlariga ehtiyoj tug'diradi. Umumiy yurisdiksiya sudlari ekologik ishlarni ko'rib chiqishda ko'pincha vaqt, ekspertiza va maxsus bilim yetishmasligi muammosiga duch keladi. Shu sababli ekologik sudlar yoki sud hay'atlari tashkil etilishi bu sohada ixtisoslashuvni kuchaytiradi. Maxsus sud organlari ekologik huquq bo'yicha puxta bilimga ega sudyalar, texnik ekspertlar va tezkor protsessual mexanizmlar asosida ishlaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, dunyoda ixtisoslashgan ekologik sudlar va sud hay'atlari soni shiddat bilan o'sib bormoqda: agar 2006-yilda ularning soni 350 tani tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilgi ma'lumotlarga ko'ra 2115 taga yetgan [2]. Bu esa ekologik nizolarni hal etishda sud amaliyotining global ahamiyatini ko'rsatadi. Biroq dunyoda ekologik nizolarni hal qiluvchi ixtisoslashgan sudlar soni keskin ortib borayotgan bo'lsa-da, ularni ilmiy tadqiq etish tizimi hanuzgacha tarqoq, faqat cheklangan davlatlar tajribasiga asoslangan va zamonaviy global boshqaruv konsepsiyalari bilan yetarlicha integratsiyalashmagan [3].

Ekologik sudlarning samaradorligi faqatgina sudyalarning huquqiy bilimiga emas, balki sud hay'atlari tarkibidagi texnik ekspertlarning (olimlar, ekologlar, mutaxassislar) ilmiy salohiyatiga bevosita bog'liqdir. Hindiston Milliy Ekologik Sud hay'ati (NGT) huquqiy va ilmiy bilimlarni birlashtirish orqali ekologik adolatni ta'minlashda noyob modelni yaratdi. Ekspert a'zolar faqat maslahatchi emas, balki qaror qabul qilishda teng huquqli subyektlardir. Bu holat sudyalarning texnikaviy va ilmiy jihatdan murakkab bo'lgan ekologik nizolarni chuqurroq tushunishiga va ilmiy asoslangan qarorlar chiqarishiga yordam beradi. Ekologik sudlar an'anaviy sudlarga qaraganda ekologik adolatni ta'minlashda ancha samarali, chunki ular «ehtiyotkorlik prinsipi» va «ifloslantiruvchi to'laydi» prinsipini ilmiy dalillar asosida qo'llay oladi [4,5].

Ekologik muammolar va nizolarni samarali hal etish markaziy hukumat qarorlaridan ko'ra ko'proq mahalliy boshqaruv organlari va sud tizimining quyi bo'g'inlaridagi islohotlarga bog'liqdir. Ekologik siyosatning muvaffaqiyati mahalliy davlat hokimiyati organlariga berilgan vakolatlar va ularning mahalliy darajadagi ekologik nizolarni bartaraf etishdagi institutsional salohiyatiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Ekologik nizolarning aksariyati aniq hududda (yer, suv, chiqindilar yoki qurilish bilan bog'liq) yuzaga keladi. Shu sababli, ularni hal etishda mahalliy sud amaliyoti va mahalliy boshqaruvning o'zaro koordinatsiyasi juda muhim. Mahalliy darajada ekologik adolatga erishish va nizolarni kamaytirish uchun qaror qabul qilish jarayonida jamiyat (jamoatchilik eshituvlari va mahalliy aholi) ishtirokini huquqiy jihatdan kafolatlash lozim [6,7,8].

Ekologik nizolarni hal etishda milliy sudlar xalqaro ekologik huquq normalariga murojaat qilishi tobora muhim bo'lib bormoqda. Milliy ekologik sudlar nafaqat mahalliy nizolarni hal qiluvchi, balki xalqaro ekologik huquq normalari va konvensiyalarini davlat ichida real ijro etuvchi (implementatsiya qiluvchi) markaziy institutga aylanmoqda. Milliy ekologik sudlarning xalqaro huquq normalarini implementatsiya qilish imkoniyati

faqatgina normativ baza bilan cheklanmaydi. Bu jarayon bevosita uchta omilga — sudning huquqiy vakolati doirasiga, uning institutsional salohiyatiga (ekspertlar bilan ta'minlanganligiga) va protsessual qoidalarning moslanuvchanligiga bog'liqdir. Ixtisoslashgan ekologik sudlar global ekologik prinsiplarni (masalan, barqaror rivojlanish yoki ehtiyotkorlik prinsipi) milliy huquqiy voqelikka moslashtiruvchi o'ziga xos «ko'prik» vazifasini o'taydi. Bu esa ekologik nizolarni nafaqat tor mahalliy manfaatlar, balki global ekologik majburiyatlar kontekstida ko'rib chiqish imkonini beradi [9].

Milliy sudlarning xalqaro huquqni qo'llashi ekologik himoyaning sifatini oshiradi. Chunki ko'plab ekologik muammolar bir davlat chegarasi bilan cheklanmaydi. Atmosfera ifloslanishi, suv resurslarining kamayishi yoki biologik xilma-xillikning yo'qolishi mintaqaviy va global tusga ega. Shu sababli sud amaliyoti xalqaro ekologik standartlarga tayangan holda qarorlar chiqarishi zarur.

Global sud amaliyoti tahlili shuni ko'rsatadiki, ekologik nizolarni samarali hal etishning ikkita asosiy modeli mavjud. Birinchisi, Boliviya tajribasi bo'lib, unda alohida agroekologik sudlar tizimi yaratilgan va tabiatning huquqiy maqomi kengaytirilgan. Ikkinchisi, Braziliya tajribasi bo'lib, bunda ixtisoslashgan alohida sudlar bo'lmasa-da, kuchli konstitutsiyaviy nazorat va prokuraturaning faolligi orqali ekologik adolat ta'minlanadi. Ushbu davlatlarda sud amaliyoti ekologik himoyani faqat kompensatsiya yoki javobgarlik bilan cheklamaydi, balki muhofaza, tiklash va profilaktika choralarini ham qamrab oladi [10]. O'zbekiston uchun ushbu ikki modelning ijobiy jihatlarini uyg'unlashtirgan holda, ma'muriy va fuqarolik sudlarida ekologik nizolar bo'yicha sudyalar ixtisoslashuvini yo'lga qo'yish hamda ekologiya organlari va prokuraturaning sudlardagi da'vo vakolatlarini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

Ekologik nizolarni hal etishda sudlarning faoliyati atrof-muhitni boshqarish tizimi bilan chambarchas bog'liq. Inspeksiya organlari tomonidan aniqlangan kamchiliklar sud ishlarida muhim dalil bo'lib xizmat qiladi. 2014–2018-yillardagi inspeksiyalar tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlar ekologik nazoratdagi tizimli kamchiliklar sudga keladigan nizolar soni va murakkabligiga bevosita ta'sir qilishini ko'rsatadi. Demak, sud amaliyoti faqat so'nggi bosqich emas, balki butun ekologik boshqaruv zanjirining bir qismi hisoblanadi. Agar ekologik nazorat ishlamasa, sudlar bu bo'shliqni qisman to'ldiradi. Ammo uzoq muddatda samarali ekologik boshqaruv uchun nazorat, ekspertiza va sud amaliyoti bir-birini to'ldirishi kerak [11].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kembrij universiteti tadqiqotchilari tomonidan asoslab berilgan ixtisoslashgan ekologik sudlar nazariyasiga ko'ra, ekologik sudlar va sud hay'atlari shunchaki nizolarni hal qiluvchi an'anaviy institutlar emas. Ular an'anaviy huquq tizimi va murakkab ekologik muammolar o'rtasidagi nazariy va amaliy bo'shliqni to'ldiruvchi, o'z qarorlari bilan davlatning ekologik siyosatiga strategik ta'sir ko'rsatuvchi fenomen hisoblanadi [12]. Milliy sud tizimida ekologik ixtisoslashuvni rivojlantirish faqatgina tashkiliy masala emas, balki chuqur nazariy zaruriyatdir. Agar ekologik sudlar faqat nomigagina mavjud bo'lsa, ularning amaliy ta'siri juda past bo'ladi. Shuning uchun ixtisoslashgan sud organlarini yaratishda sudyalar tayyorgarligi, ekspertlar bazasi, protsessual soddalik va sud qarorlarining ochiqligi ekologik adolatni mustahkamlaydi.

O'zbekiston sharoitida ekologik nizolarni hal etishda sud amaliyotini takomillashtirish dolzarb masalalardan biridir. Mamlakatda ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash, ekologik audit va sud himoyasi o'zaro uyg'un ishlashi kerak. Ekologik huquqbuzarliklar bo'yicha qarorlar bir xil amaliyotga tayanishi, ekspertiza xulosalari esa sud uchun ishonchli asos bo'lishi zarur.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ekologik sudlov sohasidagi global tajribani Yangi Konstitutsiyamizning 49-moddasi (fuqarolarning ekologik huquqlari) normalari bilan uyg'unlashtirgan holda, sud amaliyotini rivojlantirishning quyidagi ustuvor yo'nalishlari taklif etiladi [1]:

1. Milliy sud tizimida ekologik odil sudlov konsepsiyasini samarali hayotga tatbiq etish maqsadida alohida ixtisoslashgan ekologik sudlarni yoki boshqacha aytganda, amaldagi ma'muriy va fuqarolik sudlari tarkibida ixtisoslashgan ekologik sud hay'atlarini ta'sis etish. Bu, o'z navbatida, sudyalarning mazkur murakkab soha bo'yicha chuqur sohaviy ixtisoslashuvini hamda ekologik nizolarni ko'rish yuzasidan sudyalarning maxsus malaka oshirish tizimini tizimli yo'lga qo'yishni kafolatlaydi.
2. Ekologik nizolarni ko'rishda chiqariladigan qarorlarning ilmiy asoslanganligini ta'minlash uchun ixtisoslashgan sudlar (yoki sud hay'atlari) huzurida texnik ekspertlar kengashlarini tashkil etish. Sud protsessiga Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi, ixtisoslashgan ilmiy-tadqiqot institutlari ekspertlari hamda akkreditatsiyadan o'tgan laboratoriya mutaxassislarini jalb etishning majburiy protsessual tartibini qonunchilikda mustahkamlash.

3. Braziliya va Hindistonning ilg'or modellariga tayangan holda, ekologik zarar yetkazilgan yoki kelajak avlod manfaatlariga tahdid tug'ilgan holatlarda prokuratura organlari va ekologik yo'nalishdagi nodavlat notijorat tashkilotlarining (NNT) keng jamoatchilik manfaatlarini himoya qilib sudga da'vo kiritish vakolatlarini (locus standi) konseptual jihatdan soddalashtirish va kengaytirish.

4. Sudlar va ixtisoslashgan sud hay'atlari tomonidan qarorlar qabul qilishda O'zbekiston Respublikasi ratifikatsiya qilgan xalqaro ekologik konvensiyalar (Orxus, SITES, Ramsar va b.q) normalaridan to'g'ridan-to'g'ri huquqiy manba sifatida foydalanish amaliyotini O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari darajasida majburiy qoida tariqasida mustahkamlash.

5. Milliy sud amaliyoti va qonunchiligida atrof-muhitga faqatgina inson ehtiyojlarini qondiruvchi moddiy resurs sifatida qarash (antropotsentrik yondashuv) tizimidan tabiatning har bir elementini va yaxlit ekotizimlarni mustaqil huquqiy muhofaza obyekti sifatida e'tirof etish (ekotsentrik nazariya) modeliga asta-sekin o'tish. Bu borada Boliviya tajribasiga (tabiatga mustaqil huquq subyekti maqomini berish amaliyotiga) tayangan holda, milliy huquq tizimida alohida muhim tabiiy obyektlarga (masalan, Orol dengizi, Chorvoq suv ombori, noyob milliy tabiat bog'lari) sudda da'vogar sifatida ishtirok eta oluvchi maxsus huquqiy subyektlik maqomini berish. Bunda davlat organlari va jamoatchilik ushbu obyektlarning bevosita qonuniy vakili sifatida ularning nomidan va ularning manfaatini himoya qilib sudga da'vo kiritish imkoniyatiga ega bo'ladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ekologik nizolarni hal etishda sud amaliyotining o'rni beqiyosdir. Sudlar ekologik huquqlarni himoya qiladi, zarar va javobgarlikni belgilaydi, ekologik boshqaruvni huquqiy jihatdan mustahkamlaydi va kelgusidagi buzilishlarning oldini oladi. Hindiston, Braziliya va Boliviya tajribalari ekologik sudlar va sud hay'atlarining samaradorligi ularning institutsional sifatiga bog'liqligini ko'rsatadi. Shuningdek, xalqaro ekologik huquqni qo'llash imkoniyati va ekspertlar ishtiroki sud amaliyotining sifatini oshiradi. Ekologik nizolarni hal etishda sud amaliyotini kuchaytirish, ixtisoslashgan sud mexanizmlarini rivojlantirish va ekologik adolatni institutsional darajada ta'minlash zamonaviy huquq tizimining muhim vazifalaridan biridir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI


1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 49-modda. https://lex.uz/docs/-6445145
2. UNEP (2021). Planetary Action: Climate, Nature, Chemicals & Pollution. Annual Report.
3. Specialist environmental courts and tribunals: A systematic literature review and case for earth system governance analysis. https://doi.org/10.1016/j.esg.2023.100192
4. Environmental Justice in India: The National Green Tribunal and Expert Members. https://doi.org/10.1017/S2047102515000278
5. Rio de Janeiro Declaration on Environment and Development. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/riodecl.shtml
6. Historical foundations of the National Green Tribunal: Tracing the legal and institutional roots of environmental justice in India. https://doi.org/10.52152/eqj41b60
7. Assessing the impact of the National Green Tribunal on environmental jurisprudence in India. https://doi.org/10.52152/53ms3e72
8. Giustizia ambientale e green judges nel diritto comparato: il caso del National Green Tribunal of India. https://doi.org/10.57660/dpceonline.2018.584
9. Can Domestic Environmental Courts Implement International Environmental Law? A Framework for Institutional Analysis. https://doi.org/10.1017/S2047102523000092
10. Environmental Courts and Tribunals in Brazil and Bolivia: A Comparative Analysis of Institutional Systems of Environmental Protection. https://doi.org/10.57660/dpceonline.2023.1906
11. Analysis of Pollution Related Deficiencies Identified through PSC Inspections for the Period 2014–2018. https://doi.org/10.3390/su12155956
12. Reconceptualising specialist environment courts and tribunals. https://doi.org/10.1111/lest.12161

# YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV
**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV
**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

**2026. № 6/5**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz